

# **USTYURT PLATOSI SHAROITIDA YOSH BO'TALOQLARNI SAQLASH VA OZIQLANTIRISH USULLARI**

**<sup>1</sup>Tleumuratov Aqilbek Kanalbaevich**

<sup>1</sup>Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachiliik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali 3-bosqich doktoranti

**Ko'charov. S.Y**

<sup>2</sup>Samarqand davlat veterinariya tibbiyoti, chorvachilik va biotexnologiya universiteti Toshkent filialining 2-bosqich doktoranti

**Turganbaev Ruzimbay Urazbaevich**

<sup>3</sup>Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachiliik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali professori, qishloq xo'jalik fanlari doktori

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Ustyurt platosi sharoitida yosh bo'taloqlarni saqlash va oziqlantirish usullari keltirilgan bo'lib, yosh bo'taloqlarni saqlash tenologiyalari va oziqlantirish m'yorlari tavsiya qilingan va xulosalar berilgan.

**Kalit so'zlar.** Ustyurt platosi, yosh bo'taloqlar, saqlash, oziqlantirish, texnologiyalar, xulosalar.

**Аннотация.** В данной статье представлены методы содержания и кормления молодых верблюжат в условиях плато Устюрт, рекомендованы технологии их содержания и нормы кормления, а также приведены выводы.

**Ключевые слова.** Плато Устюрт, молодые верблюжата, содержание, кормление, технологии, выводы.

**Abstract.** This article presents methods of maintaining and feeding young camels in the conditions of the Ustyurt plateau. It recommends technologies for keeping young camels and feeding norms, and provides conclusions.

**Keywords.** Ustyurt Plateau, young camels, maintenance, feeding, technologies, conclusions.

**Kirish.** Bugungi kunda jahonda tuyachilik sohasida etakchilik qiluvchi asosiy jorijiy davlatlar qatoriga Avstraliya, Argentina, Namibiya, JAR (Janubiy Afrika Respublikasi), Namibiya, Mongoliya davlatlari kiradi. FAO (2023 y) ma'lumotlariga ko'ra, jahonda 24 mln. boshga yaqin bir va ikki o'rakchli tuyalar bo'lib, shundan Camelus dromedarius tuyalarining 50-ta zoti tipi va Camelus bactrianus tuyalarining 7-ta zoti tipi mavjuddir. Ushbu davlatlarda ma'lum darajada C. dromedarius va C.bactrianus tuyalarining mahsuldarligini oshirish borasida seleksiya usullari va genotipik xususiyatlarini yaxshilashga qaratilgan ko'pgina ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ammo bugungi kunda oziq-ovqat

xavfsizligini ta'minlashda tuyachilikdan olinadigan sut va go'sht mahsulotlari katta ahamiyatga ega bo'lib, tuyachilik mahsulotlarining miqdorini oshirish va mahsulotlarni qayta ishslashning zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqish yo'naliishlari dolzARB bo'lib qolmoqda.

MDH davlatlari ichida bugungi kunda tuyachilik sohasida asosan Qozog'iston Respublikasi etakchilik qilib, ularning soni 227 ming boshni tashkil qiladi. Rossiya federatsiyasida 6,4 ming boshni (Tuva respublikasida) tashkil qiladi.

O'zbekiston respublikasining asosiy cho'l va yarim cho'l hududlari xalqi tuyachilik bilan shug'ullanib, ularning bosh soni 2023 yil holatiga 20,1 ming boshni tashkil qiladi. SHunday mazkur bosh sonning Navoy viloyatida 44,3 %, Qoraqalpog'iston respublikasida 24,1 %, Buxoro viloyatida 11,9 %, Kashqadarya viloyatida 8,1 % va qolgan bosh soni boshqa viloyatlar ulushiga 11,6 % to'g'ri keladi.

O'zbekiston Respublikasida asosan tuyachilik bilan Qoraqalpog'iston Respublikasining Ustyurt platosi va shimoliy Qizilqum xududlarida shug'ullanadi. Hozirgi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasida barcha toifadagi xo'jaliklarda jami tuyalar soni 4844 boshni tashkil qiladi.

Mustaqillik yillardan keyin O'zbekiston respublikasida tuyachilik sohasida sut, go'sht va jun mahsuldorligini oshirish borasida ko'pgina ilmga asoslangan tadqiqotlar olib borilgan. Tuyalarning nasliy va mahsuldorlik salohiyatining yuzaga chiqish xususiyatlarini oshirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida ularning mahsuldorligini oshirishga erishilgan. Tuyalarning mahsuldorligini oshirishda ularning yoshi, jinsi, konstitutsiya tipi hamda yaylov tiplariga bog'liqligini tadqiqot olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ammo Qoraqalpog'iston Respublikasining tuyachilik sohasida tuyalar seleksiyasi asosida mahsuldorligini oshirish, tabiiy Ustyurt platosi yaylovlaridan foydalanish borasidagi ilmiy asoslangan usullar etarlicha emas. Shu bois, ilmiy tadqiqotlarga asoslangan seleksiya ishlarini olib borish, Ustyurt platosi yaylovlaridan ratsional foydalanish tanlangan mavzuning dolzarbligini va zaruratini belgilaydi.

**Tadqiqot maqsadi.** Qoraqalpog'iston Respublikasi Ustyurt platosi sharoitida yangi tug'ilgan yosh bo'taloqlarni saqlash va oziqlantirishning maqbul usullari aniqlash va tavsiya qilish hisoblanadi.

**Tadqiqot ob'ekti** sifatida yangi tug'ilgan yosh bo'taloqlar olingan.

**Asosiy qism.** Yangi tug'ilgan yosh bo'taloqlarni bir necha kun onasi bilan qoldirilsa, maqsadga muvofiq hisoblanadi. Sababi og'iz suti bilan oziqlanishi m'yor darajada kechadi va shu bilan birga onasiga o'rganish hollari kuchayadi. Bunday davrda ona tuyalar qo'shimcha oziqlantirilishi zarur. Bo'g'ozlikdan

keyingi davrda ona tuyalar ma'lum darajada organizdan zaruriy moddalarni yo'qotganligini hisobga olib, ularni qo'shimcha oziqlantirishda mineral moddalarga boy ozuqalar bilan oziqlantirish va mumkin qadar «Zoomiks» yoki «premiks» lardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.



**1-rasm. Yosh bo'taloqlarni ona tuya bilan qoldirish jarayoni**

Yosh bo'taloqlarni saqlash bu muhim jarayon hisoblanadi, sababi ularning kelajakdagi o'sib-rivojlanishiga bevostia ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ularni saqlashda zoogigienik m'yorlarga e'tibor qaratish zarur hisoblanadi. Bunday holat yosh bo'taloqlarning o'sish jadalligiga ta'sir ko'rsatadi. Yosh bo'taloqlarni saqlash va oziqlantirish tajribalari 1-jadvalda keltirilgan.

### **1-jadval.**

#### **Yosh bo'taloqlarni saqlash va oziqlantirishda tavsiya qilinadigan texnologiya**

Ko'rsatkichlar	Tug'ilgandan 10-kungacha	11-30 kungacha	31-60 kungacha	61-90 kungacha	91-150 kungacha
Bo'taloqlar saqlanadigan xonalardagi bosh soni	5-6	5-6	5-6	5-6	Ona tuya bilan birga
Xonalar to'shamasi	Quruq somondan	Quruq somondan	Quruq somondan	Quruq somondan	Oddiy sharoitda
1-sutkada ona- bola qilish, marta	Har doim og'iz suti bilan oziqlanadi.	5-6	5-6	4-5	3-4
Maydonchalarda yayratish, sutka/marta	1	2	2	2	2

Ozuqaga o'rgatish	Ona suti	Ona suti	Ona suti+ suv ehtiyojiga qarab	Ona suti+ suv ehtiyojiga qarab va dag'al ozuqaga	Ona tuyu bilan qo'shimcha ozuqa
----------------------	----------	----------	---	---	--

1-jadval ma'lumotlarida yosh bo'taloqlarni tug'ilgan davrdan boshlab 150 kunlik davrigacha (5-oy) saqlash va ozuqaga o'rganish bo'yicha tavsiya qilinadigan texnologiya keltirilgan bo'lib, bunda keyingi davrda ona tuyalar bilan qo'shib saqlash taklif qilinadi.

Boshqa qishloq xo'jalik hayvonlariga nisbatan tuyalarni mineral oziqlantirishga, ayniqsa ularni osh tuzi bilan etarlicha ta'minlashga katta e'tibor berilib, katta yoshdagilari sutkasiga 100 g, yosh tuyalari esa 50-60 g osh tuzi olishi kerak.

Bo'taloqlarni tuya qochirim yoshiga etguncha birga saqlanadi. YOsh bo'taloqlar 7-oylik davriga kelib ona tuyalardan ajratib boshlanadi.Ushbu davrda yaylov ozuqasiga qo'shimcha ravishda kuniga bir bosh uchun 5-6 kg yaxshi pichan va 2 kg konsentrat ozuqa beriladi. Bunday oziqlantirishda ular o'sish va rivojlanishi jadal kechadi.

**Xulosa.** Yosh bo'taloqlarni saqlash va oziqlantirish usullarida yangi tug'ilgan bo'taloqlarni ona-bola qilish texnologiyasi muhim hisoblanadi. Sog'in tuyalarni 1-sutkada 4-marta sog'ish tavsiya qilinib, ona tuyalarning yonida kamida 30-minut qoldirish tavsiya qilinadi. Yosh bo'taloqlar uchun maxsus xonalarda saqlash xona to'shamalari quruq somon to'shamasi bo'lishi zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://agriexpert.ru/articles/206/значение-и-современное-состояние-верблюдоводства>
2. <https://24.kz/ru/news/economyc/item/463253>
3. <https://yuz.uz/news>
4. <https://uz.sputniknews.ru/20220703/v>